



## MA'NAVIY – MAFKURAVIY TAHDIDLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA SALBIY TA'SIRI

**Boykalonov Qobil G'aybullayevich**

O'zMu 2- kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5702799>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-noyabr 2021  
Ma'qullandi: 10- noyabr 2021  
Chop etildi: 15- noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*ma'naviy – mafkuraviy  
tahdid, milliy g'oya,  
ommaviy madaniyat,  
kommunistik mafkura*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mamlakatimiz kelajagining  
bunyodkorlari bo'lmish yoshlar tarbiyasiga turli yot g'oyalar va  
ma'naviy – mafkuraviy tahdidlarning salbiy ta'siri xususida so'z  
yuritilgan*

Mamlakatning hozirgi rivojlanish bosqichida odamlarni ma'naviy-mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy faollashtirish asosiy vazifalardan biridir. Bunda ayniqsa, fuqarolarning ongi va qalbini ma'naviy tahdidlardan himoya qilish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'naviy tahdid insonning ongi, dunyoqarashi va axloqiga daxl qilishi mumkin bo'lgan xavf-xatardir. Xavf ko'zga ko'rinmasa-da, lekin uning keltiradigan zarari yuqumli kasalliklardan kam emas. Shu ma'noda tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblarning nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyoyimizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda. Haqiqatan ham bunday

urinishlar turli usullar va vositalar yordamida amalga oshirilmoqda. Ular orasida ma'naviy tahdidlarning ko'lami pasaymayapti.

Hozirgi voqelikda milliy istiqloq g'oyasi va yot mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy qarshi turish, psixologik urush shakllarida kechmoqda. Yot mafkuralar mafkuraviy kurashlarning ming yillik uslublarini, shuningdek, zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot maydonini egallab olish; mafkuraviy diversiya, siyosiy indoktrinatsiya, mafkuraviy infiltratsiya, dezoriyentatsiya, mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarini qo'llash orqali xalqimizda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg'otishga, davlat siyosatini obro'sizlantirishga, odamlarning o'zini Vatan, millat himoyasidan chetga tortishga, loqaydlikka erishishga intiladilar.



Yoshlarni g'oyaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan o'z saflariga tortish masalasi vahhobiylar harakatida hamma vaqt ham asosiy o'rin olib keldi. Ularning qarashlariga ko'ra, yoshlarning bir marta o'qigan namozi keksalarning yetmish marta o'qigan namozidan foydaliroqdir. Islom esa o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy hayotning ma'naviy asosi bo'lganligi sababli, yoshlar turli ijtimoiy-siyosiy

g'oyalar va da'vatlarning, fan va texnika taraqqiyotining ta'siriga berilishi mumkin emas.

Avvalo, har bir kishida mustaqil fikrlash imkon qadar kengroq dunyoqarashni shakllantirish kerak. Buning uchun uning bilim va ma'lumot darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi.

O'ziga xos ma'naviy tahdidlardan yana biri «ommaviy madaniyat» hodisasi hisoblanadi. «Ommaviy madaniyat» – bir guruh shaxslar tomonidan o'ylab topilgan va ongli ravishda targ'ib qilinadigan, biror millat madaniyatiga daxli bo'lmagan g'oyalar, odamlar va udumlar yig'indisidan iboratdir. O'zbekiston mustaqilligi asoschisi Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida haqiqat va xolislikdan yiroq bo'lgan, faqat g'arazli siyosiy manfaatlarni ko'zlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmasligi va hech kimning obro'siga obro' qo'shmasligini ta'kidlab o'tar ekan, bu haqda shunday degan edi: "Kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun

mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Yot g'oyaga qarshi biz o'z olijanob g'oyamizda maktablarimizda, akademik

litseylar, kasb-hunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan zararli intilishlarga, xuruj va harakatlarga qarshi chiqishimiz lozim. Bunda eng muhim masalalardan biri odamlar erkin fikrlarini aytishga o'rganishlari kerak. Biror shaxs insonda ezgulikka nisbatan yovuzlikning ustuvor bo'lishini isbotlab bergan emas. Aksincha, insonning beg'ubor bolalik davri uning ongida ezgulik tuyg'usini shakllantiradi.

Shu ma'noda inson ongi yovuz va johil g'oyalardan himoya qilinishi kerak. Himoya tizimida bu ish milliy g'oya asosida inson ongida ezgulik, adolat, haqiqat va mas'uliyat g'oyalarni shakllantirish bilan uni yovuzlik, jaholat, nodonlik va befarqlik kabi illatlardan himoya qilish mumkin. Milliy g'oyaga ega inson yovuz g'oyalarni farqlay oladi, bu "G'oyaga qarshi faqat g'oya" tamoyilining mazmunidir. Zero, milliy mafkuramizning maqsad va vazifalari quydagilar bilan belgilangan:

1. Odamlarni muayyan g'oyaga ishontirish.
2. Shu g'oya atrofida uyushtirish.
3. G'oyani amalga oshirish uchun safarbar etish.
4. Kishilarni ma'naviy-ruhiy jihatdan rag'batlantirish.
5. G'oyaviy tarbiyalash.
6. G'oyaviy immunitetni shakllantirish.



7. Harakat dasturlari bilan bog'liq.

Biz fazandlarimizni ma'naviy – mafkuraviy tahdidlardan himoyalash uchun ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida ma'fkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki,

yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning "da'vati" ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham, ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullajonov O. «Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi». T., 2000.
2. Globalistika mejdunarodniy mejdistsiplinariy entsiklopedicheskiy slovar. Moskva-Sank-Piterburg-Nyu-York, 2006.
3. Jo'rayev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: «Ma'naviyat», 2000. - 16 b.
4. Lafasov M. Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
1. 5.[www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
2. 6.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)